

**RABINDRANAT TAGOR****NUR VA SOYALAR***Hikoyalar***TO'XTASIN JALOLOV  
tarjimasi**

© «Yosh gvardiya» nashriyoti, tarjima  
1983  
© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasi Bosh tahririyati  
2006

**NUR VA SOYALAR****I**

Kecha kunbo'yi yomg'ir yog'ib, bu kun tindi, quyosh va to'zigan bulutlar yetilayotgan ertagi sholipoyalarga qarab birin-ketin panjalarini cho'zmoqdalar. Keng va ko'm-ko'k dalalar quyosh nuri tushishi bilan birdan yalt etib porlaydi-yu, yana bir lahzada quymoq ko'lanka ostida qolib ketadi.

Osmon sahnasida faqat ikki aktyor o'ynamoqda — bulut va quyosh, ularning har biri o'z rolini bajaradi, ammo yer sahnasida, ayni bir vaqtida necha joyda, qancha pyesalar o'ynalayotganini hisoblash mumkin emas.

Biz qishloq yo'lli ustidagi bir uyda o'ynalayotgan kichik bir hayot pesasini ko'rsatish uchun pardani ko'tardik. Bu uyning faqat ko'chaga qaragan bir xonasi g'ishtdan qurilgan, uning ikki tomonidan boshlanib ketgan eski g'isht devor hovlini tamom ihota qilib, hovlidagi boshqa loyshuwoq hujralarni ham o'z ichiga oladi. Yarim yalang'och bir yigitchaning divanda o'tirgani derazadan ko'rinish turadi, u, qo'lidagi kitobni o'qishga berilib, chap qoидаги xurmo yaprog'i bilan ba'zi-ba'zida o'zini yelpib, chivinlarni haydaydi.

Yo'l-yo'l soriya o'ralgan bir qizcha ko'chada — deraza qarshisida uyoqdan-buyoqqa o'tar va soriysining etagiga solib olgan olxo'ridan bitta-bitta olib yer edi. Qizchaning yuz ifodasidan uning divanda o'tirib kitob o'qiyotgan yigitcha bilan oshnaligi ko'rinish turibdi. U bir amallab yigitning diqqatini jalb qilish niyatida, ammo o'zining sokin beparvoligi bilan, go'yo faqat olxo'ri yeish bilan bandu yigitchanini payqamaganday ko'rinishga tirishadi.

Baxtga qarshi, qunt bilan o'qiyotgan yigitchaning ko'zlari ancha zaif bo'lib, uzoqni yaxshi ko'rolmaganidan, qizchaning sokin beparvoligi unga hech ta'sir qilmadi. Aftidan, qizcha buni bilardi, shuning uchun birpasdan keyin, uyoqdan-buyoqqa behuda yurish va sokin beparvolik o'rniga, olxo'ri danaklarini ishga sola boshladи. Ko'rga ishing tushsa, o'z qadru g'ururingni saqlab qolishing qiyin!

Bir necha danak, go'yo tasodifan boribyog'och eshikka tiqillab tekkanda, yigitcha boshini ko'tardi. Mug'ambir qizcha buni payqab, etagidagi olxo'rillardan pishkanroqlarini ajrata boshladи. Yigitcha ko'zlarini qisib qaragach, qizni tanidi: keyin kitobni qo'ydi-da, deraza oldiga kelib, tabassum bilan qizni chaqirdi.

—Giribala!

Giribala zo'r berib olxo'ri saralardi. Bu mashg'ulotga qattiq berilganday bo'lib, uydan ohista uzoqlasha boshladi.

Ko'zları zaif yigitcha qizning bu qiligi o'zining beixtiyor bir jinoyati uchun berilgan jazo ekanini darrov angladi-da, yugurib ko'chaga chiqdi.

—Hoy, Giribala, o'zi nima gap, bugun menga olxo'ri bermaysanmi?

Giribala unga e'tibor etmay, bir olxo'rini olib diqqat bilan ko'zdan kechirdi-yu, sovuqqonlik bilan yemoqqa kirishdi.

Bu olxo'rilar Giribalalarning bog'idan bo'lib, yigitchaning har kuni oladigan sovg'asi edi. Kim biladi, balki bugun Giribala bu odatini unutgandir, har nuchuk, uning harakatlari olxo'rini faqat o'zi uchungina keltirganini ochiq ko'rsatib turardi. Unday desak, nega u olxo'rini birovning eshigi oldiga kelib yeydi, masalaning bu tomoni ravshan emasdi. Yigitcha qizning oldiga kelib, qo'lidan ushladi. Dastlab, Giribala egilib, qo'lini bo'shatishga urinib ko'rdi, ammo birdan ko'zları jiqla yoshga to'lib, olxo'rilami yerga tashladi-da, yigitning qo'lidan chiqib qochib ketdi.

Kechka tomon quyosh bilan bulutlar o'yini to'xtadi, oq momiqday bulutlar osmon ufqiga to'planib qoldi, daraxt yaproqlarida, hovuzlarda, yomg'irda yuvilgan tabiatning har bir zarrasida botayotgan quyoshning nurlari chaqnab turardi. Panjarali deraza oldida yana o'sha qizcha yuribdi, xonada esa, yana o'sha yigitcha o'tiribdi. Ammo endi qizchaning etagida olxo'ri, yigitchaning qo'lida kitob yo'q. Darvoqe, bu orada boshqa ba'zi muhim o'zgarishlar ham ro'y bergen edi.

Bu gal ham qizchaning nima maqsad bilan bu yerda aylanib yurganini aytish qiyin. Har holda, uning harakatlaridan, xonada o'tirgan yigit bilan gaplashish niyatida ekani ko'rinnmas edi. Qizcha erta bilan tashlab ketgan olxo'rilarim o'sib chiqmadimikan deb ko'rgani kelgan bo'lsa kerak, uning yurish-turishlariga qarab faqat shunday taxmin qilish mumkin.

Olxo'rilarining o'sib chiqmaganiga bosh sabab shuki, ular hozir yerda emas, divanda — yigitchaning oldida edi, qizcha bir nimalarni qidirganday bo'lib, ahyon-ahyonda yerga egilganida, yigitcha o'zicha kulib, jiddiy qiyofada, mevalarni ishtaha bilan birin-ketin yeb bitirmoqda edi. Mana bir necha danaklar go'yo tasodifiy ravishda borib qizchaning yoniga tushdi, hatto oyog'iga ham tegdi, Giribala o'zining parvosizligi uchun yigitcha o'ch olayotganini angladi. Axir shu yaxshi ishmi». Sho'rlik qizcha jajji yuragining g'ururini bosib, yarashish uchun bahona qidirib yurganda, uning og'ir yo'liga yana g'ov solish noinsoflik emasmi» U bu gal yigitni xafa qilmay deb kelgan edi! Uyatdan qizchaning yuzlari qip-qizarib ketdi, qochish uchun bahona qidira boshladi, xuddi shu paytda yigitcha chiqib kelib qo'lidan ushladi. Qizcha qo'lini ajratib olishga urinsa ham, bu safar yig'lamadi. Aksinchal, qizarib, boshini o'sha berahm yigitchaning orqasiga yashirib, qahqaha uring kulib yubordi; so'ngra, go'yo zo'rlikka bo'ysunib, panjarali zindonga kirayotgan asiradek uyga kirib ketdi.

Osmonda quyosh bilan bulutlarning o'yini tabiiy bir hol bo'lgandek, bu ikki mavjudotning yerdagi o'yini ham tabiiy bir narsadir. Shuning bilan birga, quyosh va bulutlar o'yini tabiiy hol emas, umuman olganda, buni o'yin deb ham bo'lmaydi, u faqat o'yinni eslatadi, shuningdek, kishilik jamiyatida, ko'r kam kuz kunida ro'y berib turgan yuzlab voqealar orasida bu ikki noma'lum kishining qisqagina tarixi, ahamiyatsizdek ko'rinsa-da, aslida unday emas. Beparvolik bilan abadiylilikni abadiylikká ulashtiradigan qadimiy, ulug' va ko'zga ko'nmas tangri o'sha kungi tong va oqshomning kulgisi-yu ko'z yoshlariiga bir umrning baxt va musibatlar urug'ini sochib yuborgan edi. Shunday bo'lismiga qaramay, qizchaning sababsiz gerdayishi, yolg'iz tomoshabinlargagina emas, hatto pesaning bosh qahramoni boyagi yigitchaga ham tamomila anglashilmas edi. Nega bu qiz ba'zan jahli chiqadi, ba'zan esa cheksiz mehribonlik ko'rsatadi, goho ko'plab sovg'alar olib keladi-yu, goho iltifotni butunlay unutadi, — bularning sababini anglash osonmas. Bukun u, butun aqlo fikrini, zakovatini ishga solib, yigitni quvontirmoq istasa, ertaga bor kuchini, qaysarligini ishga solib, uning jig'iga tegadi. Agar yigitni biror yo'l bilan xafa qilolmasa, qaysarligi ikki daf'a ortadi, mabodo uni xafa qilguday bo'lsa, qat'iyati pushaymonlik bilan chil-chil bo'lib har bir bo'lagi ko'zyoshida erib ketar, bepoyon marhamat va mehribonlik oqimiga aylanardi.

Quyosh va bulutlar orasidagi bu ahamiyatsiz o'yinning dastlabki ahamiyatsiz tarixi bundan keyingi bobda qisqacha bay on etiladi.

## II

Butun qishloq aholisi bir-biriga dushman guruhlarga boiingan, bir-birlariga qarshi ig'vo tarqatadilar va shakarqamish ekadilar, chaqimchilik qiladilar va jut ekadilar.

Faqat Shoshibushon bilan Giribalagina falsafa va adabiyot o'rganish bilan mashg'ul.

Bu do'stlik hech kimni taajjublantirmas va qiziqtirmas edi, chunki Giribala o'n yoshli qizcha bo'lib, Shoshibushon yaqindagina san'at magistri va huquq bakalavri unvonini olgan. Ular qo'shni edilar.

Giribalaning otasi Xorkumar bir vaqtlar o'z qishlog'iда ijaraga yer olib dehqonchilik qilardi, ammo keyin qoii tang kelib, bisotida bor narsani sotdi-da, o'z xo'jayiniga noib bo'lib ishga kirdi; xo'jayini sira qishloqda yashamas edi. Xorkumarning qishlog'i o'zi yer ijarasi yig'ib yuradigan viloyatda, shu sababli u o'z uyidan uzoqqa borolmasdi.

San'at magistri unvonini olganda Shoshibushon huquq fanidan ham yaxshi imtihon berdi, lekin hech qanday ish bilan mashg'ul bo'lindi. Hech kim bilan ortiqcha inoq ham bo'lindi; majlislarga qatnashsa ham, biror marta ikki og'iz so'zlagan emas. Ko'zi zaifroq bo'lganidan, ba'zan oshnalarini tanimay qolardi, — u ko'zlarini qisib qarar, odamlar esa, buni napisandlik nishonasi deb hisoblar edilar.

Olam dengiziga o'xshagan Kalkuttaday katta shaharda kishi o'z fikrlariga berilib, tanho yashasa, bu hol unga alohida ulug'vorlik bag'ishlaydi, ammo qishloqda bu xil yurish-turishni tamom boshqacha baholaydilar.

Shoshibushonni ishlashga majbur etish uchun qilingan haraktlari hech qanday natija bermagach, otasi uni qishloqqa keltirib, xo'jalikka qarashib turishni topshirdi. Shoshibushon qishloq aholisidan ko'pgina mazammat va ta'nalar eshitdi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi: Shoshibushon osoyishtalik, tinchlikni yaxshi ko'rardi, shuning uchun uylanishni ham xohlamasdi. Qizlari balog'atga yetib, o'zlari yuk bo'lib qolgan ota-onalar esa, uning uylanishga mayli yo'qligini manmanlik deb, sho'rlikning bu «aybini» sira kechirmsadilar.

Shoshibushonni qancha bezor qilsalar, u shuncha uydan chiqmas bo'lardi. Yigit odatda burchakdagi bir xonada divanda o'tirar, atrofida inglizcha kitoblar sochilib yotardi, u kitoblarni tanlab o'tirmas, qo'lga tushganini o'qiyverardi. Uning ishi shundan iborat edi. Xo'jalik ishlari uni qiziqtirmasdi.

Biz yuqorida aytib o'tgandek, qishloqda u bilan muomala qiladigan birdan-bir odam Giribala edi.

Giribalaning akalari maktabda o'qirdilar; maktabdan qaytgach, esi past singillariga yerning shakli qanday, yer kattami, quyosh kattami deganday so'roqlar berar edilar. Qizcha bularga noto'g'ri javob berganda, darg'azab boiib uning xatosini tuzatardilar. Ko'zga tashlanib turgan narsalar quyoshning yerdan kattaligi haqidagi fikrga zid kelardi, ammo Giribala jasorat etib ba'zan bu haqda o'z tushunchalarini bay on etganda, akalari yanada kekkayib:

— Sen nima deyapsan! — derdilar. — Bizning kitobda shunday deb yozilgan axir, sen bo'lsang...

Bosma kitoblarda shunday yozilganini eshitgach, sho'rlik Giribala qattiq zarba yeganday jim qolar, uning uchun boshqa dalillar kerak bo'lmasdi.

Qizcha akalari singari o'qishni o'rgangisi kelardi. Ba'zan u o'z xonasida o'tirib, kitobni ochar, allanimalar deb gapirar, o'zini o'qiyotganday ko'rsatib, tez-tez kitob varaqlar edi.

Kichik-kichik, tushunib bo'lmaydigan qora harflar,, yelkalarida «i», «o» va «r»<sup>1</sup> harflarining belgilarini ko'tarib, go'yo sirli bir olamning darvozasi oldidagi qorovullarday yonma-yon turardilar-u, Giribalaning biror savoliga javob qaytarmas edilar. «Qotxamala» havasmandlik bilan zoriqib turgan qizchaga o'zining yo'lbars, shakal, bo'ri, eshak va otlar haqidagi afsonalarni so'zlamasdi, «Akenomonchjori»<sup>2</sup> bo'lsa, indamaslikka ahd qilgandek, o'z tarixini so'zlamay, jim turardi.

<sup>1</sup> Bengaliya alifbesida «n», «o» harflarining ustiga belgilar qo'yiladi, r» esa ko'p vaqt boshqa harflar ustiga yoziladi.

<sup>2</sup> «Akenomonchjori» boshlang'ich o'qish kitoblari.

Giribala akalaridan, o'qishni o'rgatinglar, deb lltimos qildi, ammo akalari buni eshitishni ham xohlamaadilar. Unga faqat Shoshibushon yordam qildi.

Birinchi davrda Shoshibushon ham qizchaga «Kotxamala», «Akenomonchjori»dek sirli va tushunib bo'lmaydiganday tuyuldi.

Temirpanjaralari derazalari ko'chaga qaragan kichik xonada yosh bir yigit divanda o'tirar, uning atroflarida kitoblar qalashib yetardi. Giribala tashqaridan deraza panjara singa osilib, o'qishga ortiq berilgan bu g'alati odamga taajjub bilan boqar, kitoblarning ko'pligini ko'rib, bu odam mening akalarimdan ham bilimdonroq bo'lsa kerak, degan xulosaga kelardi. Uning uchun bundan ko'ra taajjubroq ish yo'q. Qizcha, bu yigitning «Kotxamala»ni va dunyodagi boshqa eng muhim kitoblarni o'qigan bo'lismiga shubhalanmasdi. Shoshibushon kitob varaqlar, qizcha bo'lsa, jim turib, uning bilimi chegaralarini aniqlash uchun behuda urinardi.

Bora-bora Shoshibushon bu qizchaga e'tibor qila boshladi. Bir kun u yorqin muqovali bir kitobni ochib, qizchaga qaradi:

— Giri, beri kel, senga suratlar ko'rsataman!

Giri darhol qochib ketdi.

Ammo ertasiga yo'l-yo'l soriy kiyib yana deraza oldiga keldi-da, o'qiyotgan yigitga jimgina tikilib tura berdi. Shoshibushon uni yana chaqirdi, qizcha sochlarini silkitib yana qochib ketdi.

Ularning oshnaligi shu tariqa boshlangan edi, ammo bu oshnalikning keyin qaysi yo'l bilan do'stlikka aylanganini, qachondan beri qizchaning Shoshibushon divanidagi kitoblar orasidan o'ziga muqim joy olganini hikoya qilish uchun maxsus tarixiy tekshirish o'tkazishga to'g'ri keladi.

Giribala Shoshibushondan o'qishnigina emas, yozishni ham o'rgana boshladi. Bu o'qituvchi o'zining kichkina shogirdiga o'qish, yozish va grammatikani o'rgatish bilan qanoatlanmay, unga ulug' yozuvchilarning asarlarini tarjima qilib berib, bular haqida qizchaning fikrini so'rар edi desak, hammaning kulishi aniq. Bulardan qizgina biror narsa anglarmidi, yo'qmi — buni xudo biladi, ammo o'qituvchining bu qadar jonbozligi qizchaga juda yoqib tushgani shak-shubhasiz. Anglashilgan va anglashilmagan narsalar uning bolalik tasavvurida bir-biriga qo'shilib, go'zal lavhalarni buni yodga keltirardi. U jim turib, ko'zlarini katta ochib, diqqat bilan tinglar, ahyon-ahyonda o'rinsiz savollar berar yoki birdan mavzudan chetga chiqib, gapga tushib ketardi. Shoshibushon bunday hollarda qizchaning gapini bo'lmas, ulug' asarlar haqida kichik tanqidchining fikrlarini eshitib, benihoyat mammun bo'lardi. Butun qishloqda uning dilidagini anglaydigan birdan bir odam shu qizcha edi.

Giribala Shoshibushon bilan tanishganda 8 yashar edi, hozir 10 ga kirdi. Bu ikki yil mobaynida u ingliz va bengal alifbosini o'rganib, bir qancha boshlang'ich kitoblarni o'qib chiqdi. Shoshibushon bo'lsa, o'zining qishloqda o'tkazgan ikki yillik umrini yolg'izlikda o'tdi deb shikoyat qilolmas edi.

### III

Giribalaning otasi Xorkumar bilan Shoshibushonning munosabati yaxshi emas edi. Xorkumar bu magistr va bakalavraing oldiga dastlab har xil da'volar va sud protsesslari munosabati bilan maslahatga kelib yurdi, ammo bakalavr bu xil ishlarga qiziqmay, noibga o'zining huquq bobida hech narsa bilmasligiga ochiqdan-ochiq iqror bo'ldi. Xorkumar buni faqat bahona deb o'yldadi. Shunday qilib ikki yilcha vaqt o'tdi.

Bir kun o'jar bir ijarchining adabini berib qo'yish zarurati tug'ilib qoldi. Noib u ijarchagini nojo'ya harakatlari uchun sudga bermoqchi bo'lib, shu haqdagi ariza qanday bo'lishi lozim degan mazmundagi savollar bilan Shoshibushonga yopishib oldi. Shoshibushonning noibga maslahat bermagani-ku mayli-ya, ammo u qandaydir osoyishtalik va qat'iyat bilan Xorkumarga shunday so'zlar aytdiki, bu so'zlarni unga yoqib tushadi deb o'yplash aslo mumkin emas!

Xorkumarning ijarchilarga qarshi boshlagan hamma da'volari o'zining zarariga hal bo'ldi. Jig'ibiyroni chiqqan noib, raqiblarimga Shoshibushon yordam qilgan deb, nima bo'lsa ham, yigitchani qishloqdan chiqarib yuborish payiga tushdi.

Shoshibushonning ekin maydonlarida sigirlar yura boshladi, kimdir loviyalariiga o't qo'ydi, yerlarining uvoti haqida nizolar paydo bo'ldi, Shoshibushonning ijarchilari ijara haqi to'lashdan bosh tortdilar va hatto, ustidan yolg'on maxfiy xabarlar yozmoqchi bo'ldilar; oxiri ish shu darajaga borib yetdiki, agar kechroq ko'chaga chiqquday bo'lsa, o'zini kaltaklab, uyiga o't qo'ymoqchilar, degan ovozalar ham tarqaldi.

Osoyishtalikni yaxshi ko'radigan yuvosh Shoshibushon oxiri Kalkuttaga ketishga qaror qildi. U jo'nay deb turganda, qishloqqa okrug sudyasi kelib qoldi. Uning yugurdaklari, xizmatchilari, politsiyachilari, itlari, otlari va otboqari butun qishloqni larzaga keltirdi.

Bolalar, yo'lbars orqasidan kuzatib borgan chiyabo'ri galasidek, qiziqish va qo'rquv bilan sudya tushgan hovli atrofida to'dalashib yurardilar.

Noib janoblari mehmonnavozlikka ketgan xarajatlarini ortigi bilan qaytishini eslab, sud raisini tovuq, tuxum, yog' va sut bilan ta'minlab turdi. Noib janoblari favqulodda tirishqoqlik bilan, sud raisiga oziq-ovqatni keragidan ortiq yetkazib berdi, ammo bir kuni erta bilan sudning farroshi kelib, sohibning itlariiga to'rt sher<sup>3</sup> yog' talab qilganda, Xorkumarning toqati toq bo'ldi. Agar sohibning itlari mahalliy itlardan ko'ra ko'proq yog'ni uyalmay hazm etsalar ham, har holda bu qadar yog' ularning salomatliklariga ziyon qiladi deb, farroshni quruq qaytardi.

Farrosh borib o'z xo'jasiga: men noibning oldiga borib itlar uchun qaerdan go'sht sotib olish mumkin deb so'rasam, u ko'pchilik oldida past toifaga mansubligimni pesh qilib haydadi, napisandlik qilib hatto sizga ham til tegizdi, dedi.

Sohiblar uchun braxmanlarning toifaviy g'ururi toqat qilib bo'lmaydigan hol edi, buning ustiga noib uning farroshini haqarat qilgan, bunga sud raisi chiday olmadi, darhol «noib chaqirilsin» deb buyruq berdi.

Noib titrab-qaqshab, kalima o'girib sohibning eshigiga keldi. Oyoq tovushlari eshitilganda sud raisi tashqariga chiqdi.

— Nega sen mening farroshimni haydar yubording? — deb qichqirib so'radi u ajnabiy talaffuz bilan.

Xorkumar ta'zim qilib, shoshilgan holda, o'zining hech vaqt bu xil bezbetlikka yo'l qo'ymasligini aytdi; to'g'ri, dastlab 4 sher yog' berishga ko'nmgan bo'lsa ham, keyin to'rt oyoqlilarga ezgulik qilish niyatida mazkur narsani topish uchun kishilar yuborgan.

Sohib kimni, qaerga yubording deb so'radi.

Xorkumar og'ziga kelgan birinchi ismni aytdi. Sohib inobatlari kishilarga bu masalani aniqlashni topshirib, noibni o'z uyida olib qoldi, yuborilgan odamlar kechqurun kelib, hech kimni hech yoqqa yuborgan emas ekan, deb xabar qildilar. Endi sud raisida noibning so'zlari yolg'on, farroshning gaplari to'g'ri ekaniga shak-shubha qolmagan edi.

Sud raisi g'azab bilan qichqirib, farroshga buyurdi:

— Qani, qulog'idan cho'zib, uydan chiqarib yubor!

Farrosh fursatni boy bermay, atrofga to'plangan xalqning ko'z oldida sohibning buyrug'ini bajardi.

Bu haqdagi xabar darhol qishloqqa tarqalib ketdi. Haqaratlangan Xorkumar uyiga kelganda tomog'idan ovqat ham o'tmay, o'likday cho'zilib yotdi.

Xorkumarning lavozimi unga ko'pgina dushmanlar orttirgan edi, bu xabar ularni juda mamnun etdi. Ammo Kalkuttaga jo'nashga hozirlangan Shoshibushon bu

xabarni eshitganda g'oyat darg'azab bo'lib, tuni bilan u الخلأي olmadi.

Erta bilan u Xorkumarning uyiga keldi. Xorkumar Shoshibushonning qo'lidan ushlab o'pkasi to'lib yig'ladi.

— Haqarat da'vosi bilan sud raisini javobgarlikka tortish kerak. Men sening himoyaching bo'laman.

Sohibni sudga berish haqidagi fikrni eshitib, noib qo'rqib ketdi. Lekin Shoshibushon o'z fikrida

<sup>3</sup> Sher — og'irlik o'lchovchi — 900 gr.

turib oldi.

Xorkumar o'ylab ko'rish uchun fursat so'radi. Biroq o'zining xo'rlangani haqidagi ovoza hamma yerga tarqalib, dushmanlari o'z quvonchlarini yashirmay yurganini bilgach, u ortiq chidab tura olmay, Shoshibushondan yordam so'rab keldi.

— Babu, mening eshitishimcha, nima uchundir sen Kalkuttaga ketishga qaror qilibsan. Bu fikringdan qayt. Qishloqda senday bir odamning bo'lishi bizlarni ruhlantiradi.

#### IV

Hamisha odamlardan yashirinb yurgan Shoshibushon bugun sudga keldi. Shoshibushonning gaplarini eshitib boigach, sud raisi uni o'z kabinetiga chaqirib, shunday dedi:

— Shoshu babu, shu ishni ovoza qilmay, o'zaro hal qila qolsak yaxshi bo'lmasmikin?

Shoshibushon zaif ko'zlarini qisgan holda stolda yotgan qonunlar to'plamining muqovasiga diqqat bilan nazar tashladi.

— Men o'z himoyam ostidagi odamga bunday maslahat bera olmayman. U xalq orasida haqoratlang'an. Shunday bo'lgach, qanday qilib bu ishni «ovoza qilmay hal etib» bo'ladi?

Qisqagina suhbatdan sohib shuni bildiki, bu kamgap, ko'zlar zaif odamni o'z yo'liga kiritishi oson emas ekan.

— Ol rayt<sup>4</sup>, babu, ko'ramiz, qani bundan nima chiqar ekan.

Sud boiadigan kunni belgilab, rais chiqib ketdi.

Bu orada okrug sudining raisi zamindorg'a shunday deb yozdi:

«Sening noibing mening xizmatkorlarimni haqorat qildi. Bu bilan u menga hurmatsizlik ko'rsatdi. Unga munosib choralar ko'rishingga ishonaman».

Zamindor Xorkumarni chaqirib keltirdi. Xorkumar ham zamindorga bo'lib o'tgan voqeani batafsil so'zlab berdi. Buni eshitib zamindor juda g'azablanib ketdi.

— Axir, gapni cho'zib o'tirmasdan farroshga 4 sher yog'ni berib yuborsang bo'lmasmidi? Nima, bu bilan qashshoq bo'lib qolarmiding?

Xorkumar o'zining yanglishganini sezdi, darhaqiqat, bundan u hech ziyon qilmas edi. O'z aybiga iqror bo'lib, dedi:

— Ko'rinish turibdiki, men shu kun chap yonimdan turgan ekanman. Shuning uchun shunday ahmoqlik qilibman.

— Senga sohib ustidan shikoyat qilishga kim maslahat berdi?

— Marhamatlim, men shikoyat qilmoqchi emas edim. Bu mening hamqishlog'im Shoshining ishi. Uning sud ishlarida hech qanday tajribasi yo'q, bu g'ovg'ani mening roziligramsiz shu bola qo'zg'adi.

Zamindor Shoshibushondan qattiq xafa bo'ldi: bu yangi chiqqan ishsiz advokat nom chiqarish uchun har qanday oldi-qochdiga tayyor! U, ish darhol to'xtatilsin, deb noibga buyruq berdi.

Xorkumar sovg'aga bir qancha meva-cheva olib, okrug sudining raisi huzuriga keldi. Sohib ustidan shikoyat qilish mening ta'bimdag'i ish emas, bu haligi ona suti og'zidan ketmagan hamqishlog'im advokat Shoshibushonning ishi, u menga hech narsa demasdan, o'zicha shunday behuda ishni boshlagan, dedi. Sohib buni eshitib, Shoshibushonning xatti-harakatidan benihoyat darg'azab bo'lib, noibning uzurlaridan to'la qanoat hosil etdi. U, garchi g'azab ustida noibga jazo berishga buyurgan bo'lsam-da, hozir o'z qilmishimga afsuslanyapman, dedi.

Sohib yaqinda bengal tilidan yaxshi imtihon bergani uchun hozir oddiy odamlar bilan oliy uslubda gaplashar edi.

— Men xafa bo'lganim yo'q, — dedi noib, — ma'lumki ota-onalar ham jahllari chiqqanda bolalariga jazo beradilar, ammo keyincha ularni tizzalariga o'tqizib erkalatadilar.

Okrug sudining raisiga va xizmatkorlariga keltirgan sovg'asini bo'lib bergach, Xorkumar mahalliy sud raisini ko'rish uchun uning oldiga bordi. Shoshibushonning yuzsizlarcha harakatini eshitgan sud

<sup>4</sup> Ol rayt — yaxshi (*inglizcha*).

raisi bunday dedi:

— Men ham taajjubda qoldim. Men hamisha noib babu aqli odam degan fikrda edim, to'satdan menga: u kishi bu ishni bosti-bosti qilishga rozi emas, ishni sudga berish niyatida, dedilar. Men o'z qulqlarimga ishonmadim. Endi menga hamma narsa tushunarli...

Oxiri u noibdan, Shoshi Kongress a'zosi emasmi, deb so'radi. Xorkumar, kiprik qoqmay «ha», deb javob berdi.

Sohibning o'ziga xos tushunchasida bu ishlarning mohiyati ravshan edi: bular bari Kongressning qo'H bilan qilingan! Kongress<sup>5</sup> agentlari yashirinch, har yerda ig'vo qilib, janjal chiqarishga imkoniyat qidirib yuradilar, so'ng buni «Amrita bazar» gazetasida bosib, hukumat bilan janjallahadilar. U o'ziga bir zarb bilan bu fitnachilarning hammasini bir yoqli qilishga yetarli huquq bermagani uchun hind hukumatini juda zaif hisoblar edi. Ammo Kongresschi Shoshibushonning nomini diliga tugib qo'ydi.

## V

Olamda katta voqealar ro'y berganda, kichik voqealar ham och tomirlarini cho'zib, fursatni qo'lidan bermay, o'z huquqlarini talab etadilar.

Shoshibushon Xorkumar ishi yuzasidan harakat boshlab, katta kitoblardan shu ishga doir yo'l-yo'riq izlaganda, fikran o'z nutqini mashq qilar, guvohlarni takror so'roqqa chaqirar, hayajon bilan titrab, terga pishgan holda, o'zini sud majlisida, ko'p xalq orasida to'la g'alabaga erishganday tasavvur etardi, yosh shogirdi esa har kun belgili bir vaqtda uning eshigiga kelib turardi. Qizning qo'lida eski chorupat<sup>6</sup>, siyoh bilan yozib to'latilgan daftar, o'z bog'laridan goh meva, goh gul, goh shirinlik olib kelardi. Birinchi kunlarda Shoshibushonning qandaydir suratsiz, vahimali kitob o'qiyotganini ko'rди. Ilgari u qanday kitob o'qimasin, undan biror narsani Giribalaga tushuntirishga urinardi. Nahotki endi, shuncha ko'p katta, qora kitoblarda uning uchun ikki og'iz so'z topilmasa? Nahotki buning sababi kitoblarning kattaligida-yu, uning kichikligida bo'lsa!

Dastlab o'qituvchining diqqatini jalb qilish uchun ashula aytdi, so'ng xat yozdi, oxiri yozganlarini tebrana-tebrana bor tovushi bilan qichqirib o'qidi, — hech qanday natija chiqmadi. Qizcha katta qora kitobdan juda ham xavfa edi. Bu kitob unga qandaydir badburush, berahm, yovuz maxluqday tuyuldi. Uning tushunib bo'lmaydigan har bir sahifasi Giribalaga so'zsiz nafrat bilan qaragan qandaydir yomon odamning basharasiday ko'rinardi. Agar biror o'g'ri shu kitobni o'g'irlab ketsa, uni mukofotlash uchun Giribala ayasining sandiqchasidan butun shirinliklarni olib chiqqan bo'lar edi. Shu kitob nobud bo'lsin deb qiz bechora ne-ne duolar bilan xudolarga murojaat qilmadi. Ammo xudolar unga quloq solmadilar, shuning uchun men ham bu duolarning mazmunini o'quvchilarimga so'zlab o'tirishni lozim ko'rmadim.

Shunda xafa bo'lgan qizcha uch kungacha o'qituv-chisining oldiga bormaslikka qaror qildi. Keyin, ko'rgan choralarining natijasini aniqlash maqsadida yana bordi, — albatda, bu borish tamom boshqa ish bilan edi.

Yo'lda yashirinch Shoshibushonning derazasiga qaradi: endi Shoshibushon yonida u qora kitoblar yo'q edi. O'zi xona o'rtasida turib, qo'llarini cho'zib, derazaning temir-panjarisiga murojaat etib, chet tilda nutq so'zlardi. Ehtimol, u o'z nutqi sudlarning yuragini eritadimi — yo'qmi deb temirlarda sinab ko'rayotgandir. Hayotni faqat kitoblardan o'rgangan Shoshibushon agar qadim zamonalarda Demosfen, Sitseron, Bark, Sheridan kabi notiqlar o'z nutqlari bilan mo'jizalar ko'rsatgan bo'lsalar, so'z o'qlari bilan adolatsizlikni tor-mor etib, zo'ravonlikni fosh etgan, takabburni yerga qaratgan bo'lsalar, bizning zamonda ham imkondan xorij hech narsa yo'q-ku, deb o'ylar edi. U o'zining kichkina qishloqchadagi uyida turib, mansab mayidan mast bo'lgan bu ingлизни butun dunyo oldida uyaltiraman, uni o'z qilmishlariga pushaymon bo'lishga majbur etaman deb o'yldardi. Osmonlardagi xudolar uni eshitib kuldilarmi yoki ularning ilohiy ko'zlaridan yosh to'kildimi — buni

<sup>5</sup> Hozirgi Milliy Kongress partiyasi ko'zda tutiladi.

<sup>6</sup> Chorupat — kitob — darslik.

hech kim bilmaydi.

Shunday fikrlarga sho'ng'ib ketgan Shoshibushon, o'sha kuni Giribalaning kelganini sezmadni. Qizchaning etagida olxo'ri yo'q edi — u olxo'ri danaklarining ta'siriga ishonmay qo'ydi. Endi Shoshibushon beparvolik bilan: «Giri, bukun olxo'ri yo'qmi?» deb so'raganda, bu gap qizchaga xuddi masxaralaganday tuyulib: «Bor-e» deb, qochib ketardi. Bukun olxo'risi yo'qligidan mug'ambirlilikka o'tdi. Birdan ko'zlarini uzoqlarga tikib, qattiq qichqirdi:

— Shorno, meni kutib tur, hozir boraman!

Erkak o'quvchilar bu gap qizchaning uzoqdan o'tib borayotgan dugonasiga qarata aytigan deb o'ylashlari mumkin, lekin ayol o'quvchilar u yerda hech kim yo'qligini va bu gap yonginasida turgan yigitchaga aytiganini darrov fahmlaydilar. Hayhot bu mug'ambirlilik ko'zları zaif odamga hech kor qilmadi. Shoshibushon qizchaning so'zlarini eshitdi-yu, lekin ma'hosini anglamadi. U, qizchaning o'ynagisi kelyapti, deb o'yladi, uning esa, hozir qizcha bilan mashg'ul bo'lishga vaqt yo'q. Buning sababi shuki, u bugun ba'zilarning yuraklariga qadash uchun o'tkir so'z o'qlari izlamoq bilan band. Ammo kichkina qizchaning qo'li bilan otilgan o'qlar nishonga tegmagandek, olim odamning o'qlari ham nishonga tegmay, xato ketganini o'quvchilar biladilar.

Olxo'ri danaklarining bir yaxshi jihat shuki, ularni bi-rin-ketin ota bergach, bordi-yu to'rttasi xato ketganda ham, beshinchisi borib mo'ljalga tegishi muqarrar. Ammo Shorno o'ylab topilgan nom bo'lsa-da, «meni kut, men boraman» degandan keyin, bu yerda turish mumkin emas, mabodo joyida tura bersa, odamlar Shorno degan qizning borligiga shubha qiladilar. Shuning uchun, bu tadbir ham natija bermagach, Giribala darrov ketishga majbur bo'ldi. Ammo shuni ham aytish kerakki, uning harakatida dugonasini ko'rishga bo'lgan chin xohishning tabiiy quvonchlari sezilmas edi. U orqasiga qayrilmay, o'z izidan biror kishi kelyaptimiyo'qmi, shuni bilishga tirishardi. Ketidan hech kim kelmayotganini sezgandan keyin ham, bir narsaga umid qilganday, yana orqasiga qayrilib qaradi, hech kimni ko'rмагач, xo'rlik va alam shiddatidan to'zg'ib ketgan charupatni yirtib-yirtib, o'zining so'nggi umidlari bilan birga yerga tashladi. Agar shu topda Shoshibushondan o'rgangan bilimlarini qaytarib berish yo'li topilsa, ularni ham yigitning eshigi oldiga olxo'ri danaklariday irg'itib ketardi. Qizcha Shoshibushon bilan ko'rishgungacha u o'rgatgan hamma narsalarni esdan chiqarishga qattiq qaror qildi. U holda, o'qituvchi undan so'raydi, u esa birortasiga javob qaytara olmaydi. Ha bittasigayam, bittasigayam. O'shanda u yigit o'zining qanday yomon ish qilganini payqaydi!

Alamdan Giribalaning ko'zları jiqla yoshga to'ldi. Hamma narsani unutganini bilib Shoshibushonning xafa bo'lischeni o'ylaganida, qizchaning ezilgan yuragi birmuncha tinchlandi, ammo Shoshibushonning aybi bilan kelajakda nodon bo'lib qolishini o'ylaganida, baxtsiz Giribalaning o'ziga rahmi kelardi.

Osmonda bulutlar suzardi — yomg'ir fasli bosh-langanda bu xil bulutlarni har kun ko'rish mumkin.

Giribala yo'l bo'yidagi daraxt orqasiga bekinib, alamiga chidolmay yig'lab yubordi. Kuniga qancha qizlar shu xilda sababsiz ko'zyoshi to'kadilar. Bunda diqqatga sazovor hech narsa yo'q.

## VI

Shoshibushonning yuridik izlanishlari va notiqlik mashqlari nechun behuda bo'lib chiqqani o'quvchilarga ma'lum: sudga berilgan shikoyat to'satdan qaytarib olindi. Xorkumar o'z rayoniga faxriy sudya etib tayin qilindi. Endi u kir chapkon<sup>7</sup> kiyib, yog'i chiqqan salsa o'rab, tez-tez sudga borar, shuning bilan birga har gal, sohib huzuriga kirib, unga ta'zim qilib chiqishni tark etmasdi.

Bir necha kundan keyin Shoshibushonning qora, katta kitobi Giribalaning qarg'ishiga uchradi, — uyning qorong'i bir burchagiga tashlab qo'yilgan, ustini chang bosib, esdan chiqib ketgan edi. Axir Giribala qaerda, bu mudhish kitobga bo'lgan e'tiborsizlikdan quvonadigan qizcha qaerda?

O'sha kuni Shoshibushon qonun to'plamini yopib qo'ygach, Giribalaning ketib qolganini fahmladi. U xayol surib, so'nggi kunlarda qizchaning qilgan harakatlarini esladi. U Giribalaning bir kun erta bilan

<sup>7</sup> Chapkon — tantanali marosimda kiyiladigan to'n.

soriysi etagida hali yomg'ir nami qurimagan bakul gullari ko'tarib kelganini esladi, o'shanda u qizchaga qayrilib ham boqmagan edi. Qizcha esa dastlab o'zini yo'qotayozdi, lekin keyincha soriysidan igna-ip olib, boshini egib, gullarni birin-ketin ipga tiza boshladi, u bu ishni juda sekin qilsa ham, oxiri rugatdi. Kun kechikib, Giribalaning uya qaytish vaqt yetgan edi. Shoshibushon bo'lsa, hanuz o'qish bilan mashg'ul bo'ldi. Qiz g'oyat xafa bo'lib, gullarni divanda qoldirib chiqib ketdi. Yigitcha bu xil beparvolik qizning izzat-nafsi tekkanini fahmlab qoldi. Qizcha esa uning oldiga kirmay qo'ydi, faqat ahyon-ahyonda uyi yonidan o'tib qolardi, xolos; oxiri qizcha butunlay kelmaydigan bo'lib qoldi, — bunga ham ancha vaqt bo'ldi. Qizchaning izzat-nafsi bu qadar e'tiborsizlikka bardosh bermasligi muqarrar edi. Shoshibushon chuqur uf tortib, go'yo bir narsasini yo'qotganday devorga suyandi. Endi uning kichkina shogirdi yo'q edi, o'qishga bo'lgan har qanday havasi ham yo'qoldi. U kitobni olib, ikki-uch sahifa o'qib yana joyiga qo'yar, yozishga kirishar, lekin minut sayin cho'chib, birovni kutganday ko'chaga qarar, yoza boshlagan narsasini tashlardi.

Shoshibushon Giribala og'rib-netib qolmadimikan deb qo'rqli. Ehtiyot bilan surishtirib, havotirning o'rinsiz ekanini bildi. Giribalani yaqinda erga beradilar, shuning uchun uydan chiqishi mumkin emas.

Charupatni yirtib, loy ko'chaga tashlab kelgan kunining ertasiga, giri soriy etagiga shirinliklar solib, shoshilib uydan chiqdi. Havo dimligidan tuni bilan uxmlamay chiqqan Xorkumar ilk sahardan beligacha yalang'och bo'lib olib, hovlida o'tirgan edi.

— Sen qayoqqa ketyapsan, — deb so'radi u Giridan.

— Shoshi amakimnikiga.

— Nima qilasan Shoshi amakinikida, bor, uya kir! Shundan keyin uni so'ka boshladi; kap-katta qiz, yaqinda erga tegadi-yu, uyatni bilmaydi. Ana shundan keyin, unga ko'chaga chiqishni man qildilar. Endi ruxsat so'rash, yolvorish foydasiz. Bu hol qizning g'ururini poy-mol qildi. Mango mevasining quyuq sharbati, betel va limonlar qaytib o'z joyiga qo'yildi. Yomg'irlar boshlandi, bakul gullari to'kimoqda, guavi mevalari daraxtda osilib yotibdi, pishib yerga to'kilgan olxo'rilami qushlar cho'qimoqda. Afsuski, to'zg'igan charupat ham endi yo'q bo'lib ketdi.

## VII

Giribalaning to'yida surnaylar chalingan kuni, tantanaga taklif etilmagan Shoshibushon qayiqda Kalkuttaga tomon suzib ketdi.

Xorkumar o'z shikoyatini qaytarib olgandan beri, Shoshibushonni ko'rishga ko'zi yo'q edi. U, Shoshi mendan nafratlanadi, deb qattiq ishonardi. U o'zi tasavvur etgan bu nafratning minglab nishonalarini Shoshibushonning ko'zlarida, yuzlarida, xatti-harakatida ko'rdi. U o'zining bir vaqt xo'ranganini qishloq aholisi allaqachon unutgan, faqat Shoshibushongina eslab yuradi, deb hisoblar, shuning uchun yigitchaning ko'ziga qarolmasdi. Shoshibushon bilan uchrashganda o'ng'aysiz holatda qolar, shu bilan birga, yigitchaga g'azabi kelardi. U, Shoshini qishloqdan ketkazaman deb ahd qildi.

Bunday odamni o'z uyidan chiqib ketishga majbur etish og'ir ish emas. Noib janoblari tez fursatda o'z murodiga yeta qoldi. Bir kun Shoshi qayiqqa kitoblari bilan bir necha temirsandiqli yukladi. Uni bu qishloqqa bog'lab turgan birdan-bir ip shu kungi to'y tufayli tamom uzildi. U, ilgari bu nozik ip qalbini naqadar mahkam o'rab olganini tasavvur etmas edi. Qayiq daryo sohili bo'ylab yurib, tanish daraxtlarning uchlari uzoqlarda ko'zdan g'oyib bo'la boshladi, to'y muzikasi borgan sari zaiflashardi, birdan yigitning ko'ngli buzilib, nimadir tomog'ini siqib keldi, chakka tomirlari tez-tez ura boshladi, nazarida butun olam aldovchi sarobday ko'rindi.

Qayiq oqim bo'ylab ketgan bo'lsa ham, qarshi tomondan esgan qattiq shamol yoini og'irlashtirar edi. Shu payt daryoda bir voqeа yuz berib, Shoshibushon sayohatining to'xtalishiga sabab bo'ldi.

Yaqinda temir yo'lni qo'shni rayonlar bilan bog'laydigan yangi paroxod yo'li ochilgan edi. Paroxod parraklari bilan suvni to'lqinlantirib, pishqirgancha oqimga qarshi suzib kelardi. Unda yangi paroxod yоii boshqarmasining raisi yosh sohib va bir qancha passajirlar bo'lib, birmunchasi Shoshibushonning



Lituz.com

To'liq qismini  
Shu tugmani  
bosish orqali  
sotib oling!